

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
29-avgust 2025-yil

IQTISODIY TA’LIMOTLAR TARIXI

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400 000 –	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410 000 –	Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410100 –	Iqtisodiyot
	60410200 –	Buxgalteriya hisobi
	60410600 –	Bank ishi
	60411000 –	Inson resurslarini boshqarish

Fan/mavzu kodi ITT1105		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 5	
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Iqtisodiy ta’limotlar tarixi		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o‘qitishdan maqsad: talabalarga iqtisodiy ta’limotlar tarixi fanini o‘qitishning zarurligi, ma’lum davrlardagi u yoki bu sinflar, ijtimoiy guruhlar, insonlar manfaatini ifoda etuvchi iqtisodiy g‘oyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi va almashuvining xususiyatlari to‘g‘risida bilimlar berishdir. Fanning asosiy vazifalari: qadimgi dunyo, feodal jamiyat, feodalizm yemirilishi davridagi va ilk bozor iqtisodiyotiga oid iqtisodiy ta’limotlar, iqtisodiy ta’limotlardagi ma’muriy buyruqbozlik davridagi iqtisodiy qarashlar, hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlari to‘g‘risida talabalarga bilim berish. Talabalarga iqtisodiy fanda oldin amal qilib kelgan va hozir amal qilayotgan alohida maktab va yo‘nalishlarning kontsepsiya va nazariyalarini o‘rganish iqtisodiyot nazariyasidan olgan bilimlarni mustahkamlashga va chuqurlashtirishga, mamlakatimizda sodir bo‘layotgan iqtisodiy hodisalarni mustaqil tahlil qilishga va to‘g‘ri xulosa chiqarishga ko‘maklashishdan iborat. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” fani mazmuni dunyoning eng nufuzli TOP-300 universitetlari, xususan Massachusetts Institute of Technology (MIT), London School of Economics (LSE) va Moskva davlat universiteti (MSU) kabi yetakchi iqtisodiyot ta’limi markazlarining pedagogik yondashuvlari, kurs strukturalari va nazariy ramkalariga moslab ishlab chiqilgan. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: nazariy va amaliy bilimlarning uyg‘unligi, xalqaro standartlarga muvofiqlik, zamonaviy ta’lim metodlari qo‘llanilishi, fanlararo integratsiya, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, iqtisodiy nazariyalar shakllanishi tarixi haqidagi bilimlarning va zamonaviy iqtisodiy jarayonlar haqida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur mazmuni yetakchi TOP-300 universitetlarining iqtisodiyot bo‘yicha ta’lim dasturlariga moslashtirilib, global ilmiy-uslubiy yondashuvlar va ta’lim talablari asosida shakllantirilgan. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o‘rganadilar. II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi» faniga kirish. Fanning predmeti va o‘rganish usullari				

Iqtisodiy fikr, g'oya, qarash, ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy jarayoni. Ilmiy davrlash tamoyillari, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, xalq xo'jaligi tarixi, ekonomiks) bilan chambarchas bog'liqligi.

2-mavzu. Qadimgi dunyodagi iqtisodiy g'oyalar.

Qadimgi Sharq davlatlari iqtisodiy taraqqiyotining muammolari, xususiyatlari. Qadimgi Bobil davlatining g'oyalari. Qadimgi Misrdagi iqtisodiy g'oyalar.

Xammurapi qonunlari. Qadimgi Hindistondagi iqtisodiy g'oyalar. Manu qonunlari. «Artxashastra» traktati. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy fikrlar. Konfuttsiychilar va legistlarning ta'limoti. Guan-szi traktatlari. Ilk sosial utopiyalar. Zardushtiylik (Avesto)dagi iqtisodiy g'oyalar.

Qadimgi Gresiya ilk quldorlik jamiyatidagi iqtisodiy qarashlar. Ksenofont, Platonning iqtisodiy loyihalari. Aristotelning iqtisodiy qarashlari. Iqtisodiy jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirish yo'lidagi ilk urinishlar. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy konsepsiyalar.

3-mavzu: Feodal jamiyati va uning yemirilishi davridagi iqtisodiy ta'limotlar. O'rta Osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar

Yangi davr xususiyatlari. Quldorlik jamiyatining yemirilishi davrida arab davlatlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Islomdagi iqtisodiy qarashlar. Ibn Xaldunning «Kitob-ul-ibar» asaridagi iqtisodiy g'oyalar. Bozor munosabatlari to'g'risidagi fikrlar.

XIV asr oxiridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Amir Temurning iqtisodiy siyosati. «Temur tuzuklari», undagi iqtisodiy g'oyalar. Ulug'bekning iqtisodiy g'oyalari va iqtisodiy siyosat. Moliya-pul islohotining ahamiyati. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Bobur va uning vorislari olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mohiyati. Temur va temuriylar davridagi iqtisodiy siyosatning hozirgi davr uchun ahamiyati.

4-mavzu. Industrial ishlab chiqarish davri va ilk bozor iqtisodiyoti shakllanishidagi ta'limotlar, g'oyalar

Merkantilizm tushunchasi, uning mazmuni. Merkantilizm g'oyasi vujudga kelishining iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlari. Boylikning asosi - muomala sohasi. Ilk merkantilizm monetar tizimi. Tomas Mann (Angliya), Kolbertizm. Monkreten (Fransiya). Merkantilizm va proteksionizm siyosatining ayrim mamlakatlardagi ko'rinishi: Italiya merkantilizmi, Angliya-proteksionizmi, Fransiya-kolbertizmi, Germaniya-kameralistikasi. Pul topishning J.Lou (piramida) usuli. Merkantilizmning tarixiy taqdiri.

5-mavzu. Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi.

Klassik (mumtoz) iqtisodiy maktab vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi. Angliyadagi shart-sharoit. Boylikning

asosi - ishlab chiqarish sohasi, mehnat va yer, tabiat. Uilyam Petti asarlari, uning merkantilizmga munosabati.

Fiziokratizm iqtisodiy ta'limotining vujudga kelishi. Uning umumiy xarakteristikasi. Fransua Kene asarida merkantilizm tanqidi. Fiziokratlarning iqtisodiy dasturi. «Tabiiy tartib» konsyepsiyasi. «Sof mahsulot» nazariyasi. «Unumli va unumsiz mehnat» talqini.

6-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi iqtisodiy maktablarning iqtisodiy qarashlari, g'oyalari, ta'limotlari

A.Smit asarlarida klassik maktab g'oyalarining yanada rivojlantirilishi.

A.Smit manufaktura davrining iqtisodchisi sifatida.

A.Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot» nomli asari. Merkantilizm tanqidi va fritrederlik (erkin savdo)ning asoslab berilishi.

A.Smit va fiziokratlar. A.Smit uslubi. Uning mehnat taqsimoti, ayirboshlash va pul haqidagi ta'limotlari. A.Smitning qiymatning mehnat nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi. Qiymatni talqin qilishdagi ziddiyatlar. Daromadlar nazariyasi, ish xaqi, foyda, yer rentasining turli xil talqinlari. Foydaning ishchilar mehnatidan chegaralanganligi haqidagi ta'limot. Ijtimoiy kapitalni takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilishdagi ziddiyatlar (Smit dogmasi). Unumli va unumsiz mehnat talqini.

D.Rikardo – sanoatning fabrika davri mafkurachisi. Rikardoning Smit g'oyalariga mutanosibli va farqlari. Qiymatning yangicha talqini, sinflar daromadi o'rtasidagi qarama-qarshilik, erkin savdo-fitrederlik, jahon mehnat taqsimotining ilgari surilishi, ixtisoslashuv, nisbiy afzallik nazariyasi.

Maltusning «Nufus nazariyasi», qiymat nazariyasi va foyda masalalarining klassik maktabga xos ziddiyatlaridan foydalanish.

7-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga muxolif-sosialistik yo'nalish mohiyati va uning tarixiy taqdiri

XIX asr boshlarida xayoliy sosializm vujudga kelishining shart-sharoitlari va umumiy xarakteristikasi.

A.Sen-Simon. Uning tarixiy konsyepsiyasi. Burjua jamiyatining tanqidi. Yangi industrial jamiyat loyihasi. Sen-Simonizm evolyusiyasi. Sh.Furening tarixiy rivojlanish konsyepsiyasi. Fure kapitalizm tanqidchisi sifatida. Bo'lajak uyushma (assosiasiya) xaqidagi ta'limot. R.Ouen. Uning amaliy faoliyati. Kapitalizm tanqidi. Jamiyatni sosialistik o'zgartirish rejalari. «Mehnat pullari» va «Adolatli ayriboshlash» loyihasi.

Merkantelizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari. K.Marks va F.Engelsning 40-yy. yozilgan asarlaridagi iqtisodiy goyalar. Asarlarda ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalar muammosi, mexnat taksimoti, mulk shakllarining tadkikoti. Katta iqtisodiy tadqiqotlarning boshlanishi. K.Marksning «Kapital» asari. Undagi asosiy g'oyalar.

«Qo'shimcha qiymat nazariyasi». Xususiy mulkka munosabat. Kommunistik formasiya vujudga kelishi va taraqqiyotning asosiy bosqichlari to'g'risidagi ta'limotning rivojlantirilishi. F.Engelsning «Antidyuring», «Oila xususiy

mulk va davlatning kelib chiqishi» va boshqa asarlarida sosialistik jamiyat iqtisodiy asoslari ta'limotining rivoji.

K.Marks va F.Engel's iqtisodiy ta'limotining V.I.Lenin tomonidan rivojlantirilishi. «Rossiyada kapitalizmning taraqqiyoti», «Imperializm kapitalizmning yuqori bosqichi» va boshqa asarlardagi iqtisodiy g'oyalar, sosializmning ayrim olingan mamlakatda g'alaba qilishda masalasi.

V.I.Leninning sosialistik iqtisodiy kurilish yo'llari haqidagi ta'limotning shakllanishi. «Xarbiy kommunizm iqtisodiy siyosatiga berilgan baxo. Yangi iqtisodiy siyosat. «Oziq-ovqat solig'i to'g'risida», «Kooperasiya to'g'risida»gi asarlari. Sosializm tomon rivojlanishning nokapitalistik yo'li haqidaga ta'limot. Bozor iqtisodiyotiga muqobil (al'ternativ) iqtisodiy g'oyalar. Marks, Engel's, Lenin iqtisodiy g'oyalarining tarixiy taqdiri va davr sinovidan o'tmaganligi.

8-mavzu. Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar.

Institusionalizm yo'nalishi mohiyati va ahamiyati

Marjinalizm iqtisodiy ta'limotlarida neoklassik yo'nalishning shakllanishi. Marjinalizmning umumiy ta'rifi. Rivojlanish bosqichlari.

Avstriya maktabi. K.Menger, Ye.Byom-Baverk, F.Vizer siyosiy iqtisod predmeti va metodlarining sub'yektiv-psixologik nukta nazardan talqin qilinishi. «Subyektiv» va «Obyektiv» boyliklar nazariyasi, prosent(foiz) va foyda manbaining psixologik nuqtai nazardan tushintirib berilishi. Eng yuqori naf nazariyasining inglizcha varianti. U.Jevons, L.Valrasning marjinalistik g'oyalari.

9-mavzu: Yangi klassik (neoklassik) yo'nalishning shakllanishi.

Kembridj maktabi. A.Marshallning narxlar va daromadlar nazariyasi, neoklassik mikroiqtisodiyotning asosi, qisqa va uzoq davrlar, narxlar va ularning shakllantirish omillari to'g'risidagi ta'limot. A.Marshall asarlaridagi realistik yo'nalish. «Elastiklik koeffitsiyenti uslubi».

Iqtisodiy jarayonlarda vaqt ahamiyatini hisobga olish. J.B.Klarkning iqtisodiy qarashlari. «Statika» va «dinamika»ning uslubiy (metodologik) konsepsiyasi. Ishlab chiqarish omillari eng yuqori unumdorligi nazariyasi.

Lozanna maktabi. Eng yuqori naf va eng yuqori unumdorlik nazariyasining matematik jihatdan tahlili. L.Valrasning umumiy iqtisodiy muvozanat modeli. Ekonomyetrika. V.Paretoning optimum to'g'risidagi nazariyasi.

Maktabning iqtisodiyot tahlili. Matematik uslub (metodlar)ni rivojlantirishga qo'shgan xissasi. Neoklassik yo'nalish evolyusiyasining davom etishi. Ordenalistlar va kardinalistlar o'rtasidagi munozara. Iste'mol tanlovi nazariyasi, ferma va «farovonlik» nazariyalari. Bozor iqtisodiyoti bir qator qonunlarini tahlil etishda marjinalistik ta'limotning qo'llanilishi, uning ijtimoiy ahamiyati.

10-mavzu. Jon Meynard Keyns ta'limoti va neokeynschilik.

Buyuk depressiya, iqtisodiy inkirozlar. J.M.Keyns. «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) asaridagi iqtisodiy g'oyalar. Bandlik, iste'mol va

jamgarishning iqtisodiyot uchun ahamiyati. Bozor iqtisodiyotining kamchiliklari: ishsizlik va inflyasiya. Iqtisodiyotni boshqarishda davlat aralashuvining zarurligi.

Pul, investisiya, likvidlik, kapitalning eng yuqori samaradorligi, foiz stavkasi, multiplikator effekti. Keynschilik va neokeynschilik. E.Xansen, S.Xarris, J.M.Klark asarlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Stagnastika nazariyasi va dirijizm. Akselerator tushunchasi. Imperativ va indikativ rejalashtirish. Iqtisodiy usish nazariyalari. Keyns g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyati. Neoliberalizmning umumiy xususiyatlari. Davlat va iqtisodiyot. «Lippman kollokviumi». Ijtimoiy bozor xujaligi konsyepsiyasi. A.Ryobke, A.Ryustov, V.Oyken va boshqalarning iqtisodiy g'oyalari. «Ijtimoiy bozor xo'jaligi» ning Germaniyada amalga oshirilishi. Odenauer – Erxard islohotlari. Chikago monetarizm maktabi. M.Fredmenning monetaristik konsyepsiyasi. «Ishsizlik tabiiy normasi».

Neoliberalizmning oqimlari. Lyudvig fon Mizes va Fridrix Xaykning iqtisodiy g'oyalari. R.I. Lukasning «Ratsional kutilmalar nazariyasi».

11-mavzu. Nomukammal raqobat bozori nazariyalari.

Monopoliyalarning shakllanishi, bozor munosabatlarning shakllanishi. Mukammal bo'lmagan raqobatning xususiyatlari. Erkin bozorining mukammal bo'lmagan raqobat bilan bog'liqligi. Monopoliyalar o'rtasidagi raqobat xususiyatlari.

«Mahsulot differensasiyasi» tushunchasining mohiyati. Tovarlar sifati va reklama ahamiyati. Ye.Chemberlin («Monopolistik raqobat nazariyasi») g'oyalari. Baholanmaydigan omillar tushunchasi (savdo joyi, alohida savdo uslubi, insoniy omillar va boshq.). Robinson («Nomukammal raqobatning iqtisodiy nazariyasi») g'oyalari, monopoliyaga salbiy munosabat. Monopoliya (xaridor monopoliyasi) tushunchasi. Samaradorlik va adolat muammosi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi masalasi.

12-mavzu. Neoliberalizm g'oyalarining mohiyati va ahamiyati

Neoliberalizm g'oyalarining J.M.Keyns ta'limotidan farqi, umumiylik va xususiylik. «Tungi qorovul» va «sport hakami» tushunchalari. Frayburg, Chikago, London maktablari. «Lippman kollokviumi» g'oyalari.

Neoliberalizm g'oyalarining GFR da qo'llanilishi. Adenauer – Erxard rejalari. «Ordolibeoalizm». Ijtimoiy bozor xo'jaligi konsyepsiyasi.

Chikago monetarizm maktabi. Milton Fridmen g'oyalari. Fillips egri chizig'i (ish haqi va ishsizlik o'rtasidagi bog'lanish). «Ishsizlikning tabiiy normasi». Mizes, Xayeklarning iqtisodiy g'oyalari ahamiyati.

13-mavzu. Hozirgi zamon globalashuv va iqtisodiy integrasiyalashuv sharoitidagi iqtisodiy qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar

Ishsizlik, inflyasiya, inqiroz muammolari. P.Samuelson, «Ekonomiks» asari, «neoklassik sintez» konsyepsiyasining mohiyati. Keynschilik, iqtisodiy taklif nazariyasi va monetarizm g'oyalari (qorishmasi). Institusionalizm g'oyalariga e'tiborning kuchayishi. Samuelson asarida iqtisodiy tafakkur tarixiga oid

masalalarning tahlili. Iqtisodiy o'sish va adolat muammolariga munosabat. Iqtisodiy taraqqiyotning «to'rt g'ildiragi» (insoniy resurslar, tabiiy resurslar, kapital va texnologiyalar).

Xalqaro mehnat taqsimoti. Jaxon xo'jaligidagi integrasiya va ixtisoslashuv. Jaxon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy nazariyaning asosiy xususiyatlari. A.Smitning «mutloq afzallik nazariyasi». Tashqi savdoda harajatlarning roli. D.Rikardoning «nisbiy afzallik nazariyasi». Mehnat taqsimoti va mehnat unumdorligining o'ri. Solishtirma harajat ustuvorligi. Ishlab chiqarish omillari nazariyasi. Ye.Xeksher-B. Olin nazariyalari. «Tovarning hayot sikli» nazariyalari. J.Xiksning ilmiy-texnik progress bilan bog'liq iqtisodiy fikrlari. Jahonshumul iqtisodiy muammolar. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti to'g'risidagi g'oyalar.

BMTning insoniy rivojlanish konsyepsiyasi. Ming yillik deklarasiyasi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.

14-mavzu. Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy ta'limotlar.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Nisbiy afzallik konsepsiyasi. Savdo-sotiqning marjinalistik nazariyalari. «Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti» nazariyasi. Xalqaro mehnat taqsimotini tadqiq etishdagi tanqidiy yo'nalish. Valyuta munosabatlari tahlili, jahon pulining yangi metal konsepsiyasi. «Suzib yuruvchi kurs». Jahonshumul iqtisodiy muammolar. Rivojlanayotgan mamlakatlar to'g'risidagi g'oyalar.

15-mavzu. O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tish davri konsyepsiyasi. O'tish davrining mohiyati va ahamiyati

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyati. oqibatlari. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishning ob'yektiv zaruriyati.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlariga o'tishning xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida bozor munosabatlariga o'tish tamoyillarining ishlab chiqilishi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishga evolyutsion yo'l tutilishi sabablari.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning bosqichlari va xususiyatlari. Iqtisodiy islohotlarning milliy modeli va yangi asr strategiyasi. Erishilgan muvaffaqiyatlar, muammo va yechimlar. O'zbekiston iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish va modernizasiyalash vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida hozirgi globallashuv sharoitida mamlakatimiz raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan g'oyalarning ilgari surilishi. «O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining» hamda «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»ning ahamiyati.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» faniga kirish. Fanning predmeti va o'rganish usullari.
2. Qadimgi dunyodagi iqtisodiy g'oyalar.
3. Feodal jamiyati va uning yemirilishi davridagi iqtisodiy ta'limotlar. O'rta Osiyodagi temuriylar davrigacha bo'lgan va temuriylar davridagi iqtisodiy g'oyalar.
4. Industrial ishlab chiqarish davri va ilk bozor iqtisodiyoti shakllanishidagi ta'limotlar, g'oyalar.
5. Klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi.
6. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi iqtisodiy maktablarning iqtisodiy qarashlari, g'oyalari, ta'limotlari.
7. Bozor iqtisodiyotiga muxolif-sosialistik yo'nalish mohiyati va uning tarixiy taqdiri.
8. Marjinalizm ta'limoti va neoklassik iqtisodiy maktablar. Institusionalizm yo'nalishi mohiyati va ahamiyati.
9. Yangi klassik (neoklassik) yo'nalishning shakllanishi.
10. Jon Meynard Keyns ta'limoti va neokeynschilik.
11. Nomukammal raqobat bozori nazariyalari.
12. Neoliberalizm g'oyalarining mohiyati va ahamiyati.
13. Hozirgi zamon globallashuv va iqtisodiy integrasiyalashuv sharoitidagi iqtisodiy qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar.
14. Jahon xo'jaligi to'g'risidagi iqtisodiy g'oyalar.
15. O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o'tish davri konsyepsiyasi. O'tish davrining mohiyati va ahamiyati.

Seminar mashg'ulotlarda mavzularga oid keyslar yechish, esselar tayyorlash, ijodiy ishlar yozish kabi ishlar bajariladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari

1. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar.
2. Qadimgi Hindistondagi ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalar.
3. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy g'oyalar. Xristianlikning vujudga kelishi.
4. Qadimgi Gretsiyadagi iqtisodiy g'oyalar.
5. Qur'on va Hadislarda berilgan ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalar.
6. IX-XVI asrlarda O'rta Osiyodagi iqtisodiy g'oyalar, qarashlar.
7. Yusuf Xos Xojibning ilmiy meroslari.
8. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy meroslari.
9. Temur va temuriylar davri iqtisodiy g'oyalari.
10. A.Navoiyning ilmiy meroslari.
11. Boburning ilmiy qarashlari.
12. Arab mamlakatlaridagi feodalizmning iqtisodiy g'oyalari: Ibn Xoldun qarashlari.

	13. Yevropada merkantilizm va klassik iqtisodiy maktabning vujudga kelishi. 14. Fiziokratlar maktabi. F.Kenening iqtisodiy jadvali. 15. V.Petti Angliya klassik iqtisodiy ta’limotning dastlabki vakili. 16. A.Smit va D.Rikardoning klassik iqtisodiy maktabi. 17. Fransuz klassik maktabi. F.Buagelber va F.Kenelarning iqtisodiy nazariyalari. 18. S.Sismondining iqtisodiy qarashlari. 19. P.M.Prudonning iqtisodiy ta’limoti. 20. R.Maltusning aholi nufusi nazariyasi va zamonaviy maltus ta’limoti. 21. Amerikada iqtisodiy g’oyalarning vujudga kelishi (XVIII-XIX asr). 22. Germaniyada iqtisodiy kontsepsiyalarning shakllanishi. F.Listning tarixiy maktabi va uning iqtisodiy qarashlari. 23. Marks iqtisodiy g’oyalari vujudga kelishining ijtimoiy- iqtisodiy shart-sharoitlari, uning mohiyati, tarixiy taqdiri. 24. Germaniyada «Yangi tarixiy maktab» va uning iqtisodiy mazmuni. 25. Avstriya maktabi, uning nazariyalari va uslublarining shart- sharoitlari. 26. Kembrij maktabi. A.Marshallning talab va taklif nazariyalari. 27. Neoklassik maktab va neoliberalizmning evolyusiyasi. 28. J.M.Keyns ta’limoti. 29. 50-60 yillardagi ijtimoiy-institusional yo’nalish. Xalqaro mehnat taqsimotining neoklassik nazariyalari. 30. Shvetsiya iqtisodiy modelini shakllantirish g’oyalari. 31. O‘zbekiston Respublikasida erkin bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish to‘g‘risidagi iqtisodiy konsyepsiyalar. 32. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning ahamiyati. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan ishlanmalar tayorlash va uni taqdimot qilish uchun tavsiya etiladi. Talaba mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning muayyan o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: Darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanib, barcha mavzularni o‘rganish asosida mediatexnologik taqdimotlar tayyorlash.
3.	V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: • Talaba iqtisodiy ta’limotlar paydo bo‘lish tarixini; turli davrlarda yashab o‘tgan iqtisodchi olimlar ilmiy qarashlari, insoniyat rivojlanish jarayonida turli konsepsiyalarning shakllanishi uchun turtki bo‘lgan omillar hamda ularning tarixiy taqdiri to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi; • talaba o‘tmishdagi hodisa va jarayonlardan kelib chiqqan holda ilmiy qarash, yo’nalish va maktablarning g’oyalarini tahlil qilish usullarini qo‘llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni)shakllanish jarayoni bilan tanishish, bugungi kundagi iqtisodiy muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi; • talaba iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; iqtisodiy

	muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
	VI. Mavzu yuzasidan savollar: 1. Iqtisodiy nazariyalar rivojlanishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? 2. Tarixan olganda davlat iqtisodiy siyosatiga iqtisodiy ta'limotlarning ta'siriga misol keltiring. 3. Xammurapi qonunlari qachon va qaysi davlatda yuzaga keldi, uning asosiy mazmunini nimada? 4. "Artxashastra" asari qachon yaratilgan va undagi muhim iqtisodiy fikrlar, tushunchalar qaysi? 5. Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar; Konfutsiy, konfutsiylik, daosizm g'oyalari haqida ma'lumot bering. 6. Qadimgi Osiyo va antik dunyoda qo'llaniladigan xo'jalik turi. Nega quldorlik tuzumi tabiiy deb baholangan? 7. Qadimgi Rimdagi g'oyalarning asosiy xususiyatlari. 8. Ibn Xoldunning bosh iqtisodiy asari qaysi va u qachon yozilgan? Asardagi asosiy iqtisodiy g'oyalarni ta'riflab bering. 9. Amir Temur davridagi soliq tizimi va maoshni belgilashning xususiyatlarini so'zlab bering, 10. Merkantilizm ta'limotining mazmuni va uning bosqichlari, umumiylik va farqlari nimadan iborat? 11. Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishining shart-sharoitlari. Bu maktabning merkantilizmdan asosiy farqi nimadan iborat? 12. U.Pettingning iqtisodiy qarashlari, uning uslubi. 13. F.Kenening qaysi g'oyalari hozirgi davr iqtisodchilari tomonidan foydalanilmoqda? 14. A.Smitning pul, qiymat, daromadlar, ish haqi, kapital va takror ishlab chiqarish to'g'risidagi ta'limotlariga qisqacha izoh bering. 15. "laissez faire" va "ko'rinmas qo'l" tamoyillari nimani anglatadi? 16. D.Rikardoning asosiy asaridagi iqtisodiy g'oyalar nimadan iborat? 17. T.Maltus "aholi nufuzi nazariyasi"dagi asosiy g'oya nima? 18. R.Ouenning iqtisodiy konsepsiyasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat? 19. Marksizm vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat? 20. Marjinalizm maktabi iqtisodiy qarashlari. 21. A.Marshall bo'yicha bozor bahosi nima? 22. "Marshall hochi"ning mazmunini izohlab bering? 23. J.B.Klarkning statik va dinamik iqtisodiyot to'g'risidagi g'oyalari nimani anglatadi? 24. Keynes ta'limotining mohiyati, "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asari to'rsida nima bilasiz? 25. Keynsning "psixolog qonuni" nimani anglatadi? 26. Nomukammal raqobat bozori nazariyalarining paydo bo'lish shart-sharoitlari qanday? 27. Chikago maktabining monetar konsepsiyasi, Fillips egri chizig'ining mohiyati nimada? 28. Fridmanning "ishsizlik tabiiy normasi"ni tushuntirib bering.

	29. P.Samuelsanning "Ekonomiks" asaridagi asosiy g`oyalar.</p> <p>30. Iqtisodiyot bo`yicha Nobel mukofotlari qachondan beri topshiriladi? Bir necha mashhur laureatlarga xarakteristika bering.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliq nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha belgilangan test yoki yozma ishni topshirishi zarur.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. E.K.Hunt, Mark Lautzenheiser - History of Economic Thought_ A Critical Perspective-M.E. Sharpe (2011) – 610 p. 2. История экономических учений: учебное пособие / Т. И. Кружкова, О.А.Рущицкая, О.Е.Рущицкая, А.В.Ручкин. – Екатеринбург: Издательство Уральского ГАУ, 2022. – 156 с. 3. Шишкин, М. В. История экономических учений: учебник для вузов / М. В. Шишкин, Г. В. Борисов, С. Ф. Сутырин. — 3-е изд., испр. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2025. — 376 с. 4. A.Razzoqov, Sh.Toshmatov, Sh.O'rmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. T., "Iqtisod-Moliya" 2007 y. – 320 b. 5. Sh.Tashmatov, X.Asatullayev, Z.Allaberganov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. T., "Iqtisod-Moliya", 2019 y. – 352 b. 6. Q.Yo'ldoshev, Q.Muftaydinov, V.Abdurahmonov. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. T., "Iqtisod-Moliya", 2006 y. 7. Я.С.Ядгаров. История экономических учений. Москва, INFRA-M. 2009 год. – 480 с. XI. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b. 2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar

	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b. 3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b. 4. Harry Landreth., David S. Colander. “History of Economic Thought”. 5. Q.Muftaydinov va Q.Yo‘ldoshev. Sharq iqtisodiy ta’limotlar tarixidan. Toshkent, 2002. – 128 b. 6. Islomov A., Egamov E. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Toshkent, “O‘zbekiston” 2003. – 216 b. 7. M.I.Nurmatova. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. Qo‘qon, 2024 – 360 b. Axborot manbalari 1. www.press-service.uz -O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati 2. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali 3. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 4. www.edu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali 5. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. 6. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. 7. www.mineconomy.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi rasmiy sayti 8. www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti 9. www.norma.uz -O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi sayti 10. www.tsue.uz – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy sayti 11. www.tradingeconomics.com – экономические показатели 12. www.ereport.ru - Обзорная информация по мировой экономике 13. www.stplan.ru - экономика и управление 14. www.catback.ru - научные статьи и учебные материалы по экономике
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari: M.Kurbanov – Qo‘qon DU Geografiya va iqtisodiyot kafedrasida dotsenti M.Nurmatova – Qo‘qon DU Geografiya va iqtisodiyot kafedrasida o‘qituvchisi
9.	Taqrizchilar: D.Mamayusupova - Qo‘qon DU, “Geografiya va iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)